

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KORXONALAR MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ILMY-NAZARIY ASOSLARI

Zokirova Diyora

*Toshkent Moliya Instituti**BBI-80 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritib o'tilgan. Maqolada axborot xavfsizligiga doir asosiy jahon tendensiyalari tahlil qilingan hamda raqamli axborotlarni himoyalash muammolaini hal qilish yo'llari ko'rib chiqilgan, shuningdek ushbu masalalar yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy xavfsizlik; axborot xavfsizligi; raqamli texnologiyalar; sanoat korxonalari; axborot texnologiyalari; global iqtisodiyot; kiberxavfsizlik.*

Annotation: *this article describes the scientific and theoretical basis for ensuring the financial security of enterprises in the real sector of the economy in the digital economy. The article analyzes the main global trends in information security and discusses ways to address the protection of digital information, as well as provides conclusions and recommendations on these issues.*

Keywords: *financial security; information security; digital technologies; industrial enterprises; information technology; global economy; cybersecurity.*

Kirish

Jahon hamjamiyatida ha bir davlatning o'ziga xos o'ringa ega bo'lgani kabi, O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning va global iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, global iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar albatta O'zbekistonga ham o'z tasirini o'tkazmay qolmaydi. Har bir davlat uchun o'zining iqtisodiyotini kuchaytirish yirik globalashuvda katta, yirik takibiy qismga aylantirish muhim hisoblanganidek, O'zbekistonning ham oldidagi muhim vazifasi hisoblanadi, shuningdek pandemiya davrida iqtisodiyotni rivojlantirish borasida raqamli texnologiyalarni joriy etilishining muhim ahamiyat kasb etishi o'z isbotini amaliyotda ko'rsatdi. Bu vazifalarni bajarishda raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga kirib borishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilishi lozimligi dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida aks etdi. Murojaatnomada "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur" deb aytdi⁴.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb nom berishni taklif qildi va bajarilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni inobatga olib Raqamli O'zbekiston - 2030 dasturini ikki oy ichida ishlab chiqish"⁵ to'g'risida hukumtga topshiriq berdi. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, shuningdek 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079 sonli farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra mamlakat iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga o'tkazish va raqamli iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish;
- korxonada ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;
- innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;
- 2025 yilda korxonada resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushini 90 foizga etkazish;
- sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, robotlashtirish, "Internet buyumlar", "sun'iy intellekt" kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027 yilga kelib, apparat qismini esa 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish;⁶

Tahlil va natijalar

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha sanoat korxonalarida boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.


Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadal kirib borishda moliya tizimida xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan

⁶ "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini PF-6079 sonli farmoni.

vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Mazkur masalalarni ijobiy hal qilish va moliya tizimi barqarorligini ta'minlash o'z o'zagida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdek muhim vaifani aks ettiradi.

Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash ishlab chiqarishni tashkil etishning butunlay yangicha tizim va iqtisodiyot subyektlari orasida milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim dastagi bo'lgan korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash alohida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy xavfsizligi deganada uning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyatini hamda kadrlarni faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, samarasiz ilmiy-sanoat siyosatlardan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi. Korxonaning moliyaviy xavfsizligi jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik buzilganda eng dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Korxonaning moliyaviy xavfsizligi sifat va miqdor ko'rsatkichlarining kombinatsiyasi bilan ajralib turadi, ulardan eng muhimi bu xavfsizlik darajasi hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy xavfsizlik darajasi korporat iv resurslardan fodalanish holatini moliyaviy xavfsizlik darajasi mezonlari bo'yicha baholashdir. Moliyaviy xavfsizlikning eng yuqori darajasia erishish uchun korxonona moliyaviy xavfsizlik tizimining asosiy funksional komponentlarini maksimal darajada ta'minlashi kerak bo'ladi. Korxonona moliyaviy xavfsizligining funksional tarkibiy qismlari uning tarkibida bir-biridan sezilarli darajada farq qiluvchi moliyaviy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlari jamlanmasi hisoblanadi.



Korxonaning moliyaviy xavfsizligi yuqoridagi funksional komponentlarning har biri o'z mazmuni, funksional mezon va qo'llab-quvvatlash vositalar majmui bilan tavsiflanadi. Uning axborot funksiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda korxonaning barcha jihatlariga oid ma'lumotlar korxonaning qimmatbaho resurslari hisoblanadi. Iqtisodiyotning turli sub'ektlari o'rtasida raqamli transformatsiyalash sharoitida xavfsiz axborot muhitini yaratish barqaror raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning ajralmas elementiga aylanadi. Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan ko'plab raqamli texnologiyalar orasida katta ma'lumotlar, buyumlar interneti va sun'iy intellekt texnologiyalari boshqarilishi murakkab bo'lgan yo'nalishlar hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar potentsial jihatdan ustun, albatta, lekin, ularning joriy etilishi aholining shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligiga tahdidlarni keltirib chiqaradi va ma'lumotlarning ozgina bo'lsa ham ruxsatsiz tarqalishi raqamli iqtisodiyot va uning xavfsizligiga bo'lgan ishonchni kamaytiradi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida axborot xavfsizligiga tahdidlar sonining ortib borishi raqamli texnologiyalardan foydalanishning doimiy ravishda murakkablashuvi va takomillashuvi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda

yirik tashkilotlarda bo'lgani kabi kichik tashkilot va korxonalarining biznes faoliyatiga nisbatan ham tez-tez va jiddiy axborot xujumlari uyushtirilmoqda. Ma'lumotlarning yo'qotilishi ko'plab noxush oqibatlarni yuzaga keltirib chiqaradi; firibgarlik amalga oshirilgan taqdirda ishbilarmonlik obro'siga putur etkazilishi, raqobatbardoshlikning kamayishi, moliyaviy yo'qotishlar, shuningdek, yo'qolgan ma'lumotlarni qayta tiklash zarurati tufayli ishlab chiqarish va etkazib berish rejalarini buzilishi, xarajatlarni oshib ketishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi deb aytish mumkin.

Raqamli transformatsiya sharoitida yuqoridagi holatlarni oldini olish uchun albatta, butun global tizimning axborot xavfsizligiga bo'lgan e'tibor juda muhim hisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi uzluksiz takomillashtirilib boriladi hamda ma'lumotlarni himoya qilish, tashkilot faoliyatining barcha yo'nalishlariga integratsiya qilingan to'liq avtomatlashtirilgan jarayonga aylanadi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirilishi sharoitida axborotlari xavfsizligini ta'minlash nafaqat alohida tashkilot darajasida, balki davlat darajasida ham ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4024-son qaroriga asosan "Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi" tashkil etildi va bu esa O'zbekistonda kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha vazifa va muammolarga davlat darajasida alohida e'tibor qaratilayotganini anglatadi.


2019 yilda Internetning tarmog'ining milliy segmenti web-saytlarida kiberxavfsizlikning 268 insidenti⁷ aniqlangan (1-diagramma), shulardan diagrammaning qariyb 83% I, ya'ni 222 ta kontent tarkibni ruxsatsiz yuklab olish (RKYuO), 45 tasi defeys⁸ va 1 tasi yashirin mayning⁹ bilan bog'liq. Jumladan, aniqlangan insidentlarning 27 tasi hukumat web-saytlariga uyushtirilgan. Ushbu holatlar kiberxavfsizlikning O'zbekistonda ham keng avj olgani va davlat miqyosida ko'rib chiqish zarur ekanligiga yana bir amaliy misol bo'la oladi.

⁷ Insident (IT Incident) - AT-tuzilmaning me'yoriy ishlash doirasidan chiqib ketadigan, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki potentsial ravishda tizim jarayonlarining to'xtab qolishiga olib keladigan va uning ishlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday hodisa, ko'rinish.

⁸ Defeys (ingl. deface) - bu web-sayt sahifa mazmunini boshqasiga, ko'pincha reklama, tahdid yoki ogohlantirishga chaqiradigan sahifaga o'zgartirib qo'yadigan xakerlik hujumi. Bunga qo'shimcha ravishda, tajovuzkorlar saytning qolgan qismiga kirishni to'sib qo'yadi yoki resursning avvalgi tarkibini butunlay o'chirib tashlaydi. Ba'zilar e'tibor qozonish yoki server administratoriga xavfsizlikning nozik joylari mavjudligini ko'rsatish uchun defeysni amalga oshiradi.

⁹ Yashirin mayner (stealth miner, mayner-bot, botnet) - bu foydalanuvchiga sezdirmasdan avtomatik ravishda mayningni amalga oshiradigan dastur. Ya'ni, bu kompyuterga o'rnatiladigan, uning resurslaridan foydalanadigan va ishlab topgan barcha pullarni ishlab chiquvchining hamyoniga o'tkazib yuboradigan tashqi dasturiy ta'minot.

O'zbekistonda aniqlangan kiberhujumlar (1-diagramma)



Shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatidagi holatni real vaqt rejimda aks ettirish, uzatilayotgan va qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta'minlash, ma'lumotlarni qayd qilish, xabarlarini izlash va guruhlashni sodda holatga keltirish, axborot saqlashni mukammallashtirish, hisobotlar tayyorlashda kishi mehnatini kamaytirish, xo'jalik bo'g'inlari orasidagi o'zaro bog'lanish va axborot oqimi sifatini ko'tarish korxonalarda moliyaviy xavfsizlik tizimining muhim jarayoni hisoblanadi. Hozirgi davrda ushbu jarayon uchun eng katta to'siq bu mamlakatda "Raqamli hukumat"ning kam rivojlanmaganligidir. Elektron hukumat infratuzilmasi elektron axborotlarni faol shakllantirishda, institutsional islohot mehanizmlarini rivojlantirishda va ularni joriy qilishda hamda belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli texnologiyalarning fundamental kompleksini talab etadi. Hozirgi kunda zamonaviy korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda va ularning boshqaruv jarayonlarida foydalanish korxonalar iqtisodiyotini rivojlanishida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni oldini olishda va ularning mexanizmlarini ishlab chiqishda samarali ta'sirini o'tkazadi. Mana shu foydalanilayotgan tizimlar kirib borgan sohalar korxonani rivojlanishida juda kata tub o'zgarishlarga olib keladi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy sub'yektlar kengayib borishi bilan bir qatorda moliyaviy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi va shunga o'xshash bir qator avval mavjud bo'lmagan yangi tahdidlarga olib keladi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, raqamli iqtisodiyotning to'g'ri shakllanishi va samaradorligi ko'p jihatdan axborot xavfsizligini ta'minlashga bog'liq. Raqamli ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlarning paydo bo'lishi barcha - davlat, alohida tashkilot va fuqarolar darajalarida ham xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan. Hozirgi kunda

ma'lumotlarni saqlash tizimlariga hujumlar tobora murakkablashib, ko'p uchraydigan salbiy holatga aylanib borayotganligi sababli mamlakat iqtisodiy barqarorligini saqlash va raqobatdoshlikni ta'minlashda axborot xavfsizligi masalalari ustuvor vazifa bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

Korxonalar, iqtisodiy tarmoq tashkilotlari websayti va korporativ tarmoqlarini axborot xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish va himoya qilish maqsadida quyidagi tashkiliy va texnik choralarini ko'rish kiberfazo va axborot tizimlariga uyushtiriladigan ichki hamda tashqi tahdidlarni oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishga imkon beradi deb hisoblaymiz:

Axborotlar bo'yicha tahlilni amalga oshiish;

Boshqarish;

Nazorat qilish;

Parol identifikatsiya tizimini kuchaytirish;

Prognoz qilsih;

Axborot xavfsizligini ta'milash tizimini optimallashtirish;

Axborot xavfsizligi web-sayt ekspertizasini yuritish.

Keltirib o'tilgan va boshqa qo'shimcha himoya choralarining qabul qilinishi kelajakda korxonalar web-sayti, axborot tizimlari va resurslaridagi axborot xavfsizligiga tahdidlar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi, bu o'z navbatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan himoya qilishga va keyinchalik axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning sabablari va oqibatlarini bartaraf etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
3. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini PF-6079 sonli farmoni.
4. Digital Economy Outlook.OECD 2017
- 5.GARTNER ,Information security,Worldwide, 2018 Update , October 5, 2018